

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 278 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOB VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI

Muxammadov Nodir Karimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchi i.f.f.d. (PhD),

E-mail: nodir.muhammadov@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-2029-6968

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda soliq tizimida raqamlashtirish jarayonlarini takomillashtirish orqali soliqlarni undirishda uchraydigan metodologik muammolar chuqur tahlil qilingan. Soliq ma'murchiligida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, soliq to'lovchilar bilan aloqalarda shaffoflikni oshirish, soliq ma'lumotlari oqimini tezlashtirish va soliq bazasini kengaytirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, mavjud axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasi, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashning texnik va tashkiliy talablari, sun'iy intellekt hamda blokcheyn texnologiyalarini soliq jarayonlariga tatbiq etish zarurati asoslangan. Tadqiqotda soliqlarni undirish samaradorligini oshirish yo'lidagi asosiy to'siqlar — metodologik yondashuvlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, yagona standartlashtirish tizimining to'liq shakllanmagani, axborot xavfsizligi bo'yicha talablarning kuchaytirilishi zarurati kabi masalalar alohida ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan raqamlashtirish orqali soliq tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlash, soliq munosabatlarida ishonchli nazorat mexanizmlarini shakllantirish va soliq jarayonlarining institutsional samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligi, soliqlarni undirish, metodologik muammolar, raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari integratsiyasi, sun'iy intellekt, blokcheyn, ma'lumotlar xavfsizligi, shaffoflik, soliq tushumlari samaradorligi.

Abstract. This scientific work provides an in-depth analysis of the methodological problems encountered in tax collection within the process of improving digitalization in the tax system. The study highlights the opportunities for introducing modern digital technologies into tax administration, enhancing transparency in interactions with taxpayers, accelerating information flows, and expanding the tax base. It substantiates the necessity of integrating existing information systems, processing large volumes of data, and implementing artificial intelligence and blockchain technologies to strengthen the resilience and efficiency of tax procedures. The research also examines the main challenges associated with improving tax collection efficiency, including insufficient development of methodological approaches, weaknesses in standardization, and issues related to ensuring data security. The author proposes scientifically grounded practical solutions aimed at achieving sustainable growth in tax revenues through digitalization and establishing reliable, transparent control mechanisms in tax relations.

Keywords: tax system, digitalization, tax administration, tax collection, methodological problems, digital technologies, integration of information systems, artificial intelligence, blockchain, data security, transparency, efficiency of tax revenues.

Аннотация. В данной научной работе комплексно анализируются методологические проблемы, возникающие при сборе налогов в условиях совершенствования процессов цифровизации налоговой системы. Освещены основные направления внедрения цифровых технологий в налоговое администрирование, повышения прозрачности взаимодействия с налогоплательщиками и расширения налоговой базы. Обоснована необходимость интеграции действующих информационных систем, обработки больших объемов данных, внедрения технологий искусственного интеллекта и блокчейна для повышения устойчивости и эффективности налоговых процедур. Отдельное внимание уделено ключевым проблемам повышения эффективности сбора налогов — недостаточной проработанности методологических подходов, несовершенству стандартизации и вопросам обеспечения безопасности данных. Автором представлены практические предложения, направленные на достижение устойчивого роста налоговых поступлений посредством цифровизации и формирование надежных и прозрачных механизмов контроля в налоговых отношениях.

Ключевые слова: налоговая система, цифровизация, налоговое администрирование, сбор налогов, методологические проблемы, цифровые технологии, интеграция информационных систем, искусственный интеллект, блокчейн, безопасность данных, прозрачность, эффективность налоговых поступлений.

KIRISH

Hozirgi davrda soliq tizimini samarali boshqarish va soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamlashtirish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq ma'murchiligida raqamli texnologiyalarni qo'llash nafaqat soliqlarni to'liq va o'z vaqtida undirishni ta'minlaydi, balki soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda shaffoflik va ochiqlikni oshiradi. O'zbekiston Respublikasida ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq ma'lumotlarini elektron shaklda qayta ishlash, yagona axborot bazalarini yaratish va integratsiyalash, shuningdek sun'iy intellekt va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, soliqlarni undirishda raqamlashtirishga oid metodologik muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, soliq ma'lumotlarini standartlashtirishdagi kamchiliklar, mavjud axborot tizimlari o'rtasidagi yetarli integratsiya yo'qligi, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashdagi qiyinchiliklar hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy-metodologik asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani shular jumlasidandir. Mazkur tadqiqotda soliq tizimida raqamlashtirishni takomillashtirish orqali soliqlarni undirish samaradorligini oshirish yo'lida yuzaga kelayotgan metodologik muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligida joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari bo'yicha qisqacha adabiyotlar sharhi quyidagicha. Soliq majburiyati — jismoniy shaxs, korporatsiya yoki boshqa yuridik shaxsning davlat oldidagi soliq qarzining umumiy summasidir. Daromad solig'i, savdo solig'i va kapital daromad solig'i soliq majburiyatlarining asosiy shakllarini tashkil etadi (Jonson, 2022) [1]. Soliq majburiyatining ta'rifi jismoniy yoki yuridik shaxsning davlatga soliq bo'yicha qarzi hisoblangan pul yoki qarz miqdoridir (Jozepson, 2022) [2]. Demak, soliq majburiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining iqtisodiy mohiyatini ochish imkonini beradi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash deganda jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq majburiyatlarini qonunga xilof ravishda kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan keng ko'lamli faoliyat tushuniladi. Soliq majburiyatlari soliq tizimlarining standart va huquqiy jihati bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash firibgarlik yo'li orqali ushbu majburiyatlardan qochish yoki ularni kamaytirishga qaratilgan jinoiy harakatdir [3].

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash tarix davomida ko'plab davlatlarda keng tarqalgan bo'lib, bu atama soliqlarning adolatli ulushini to'lashni istamaydigan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan turli strategiyalarni o'z ichiga oladi (Ovusu va boshq., 2019). Daromadni kamaytirib ko'rsatish, chegirmalarni asossiz ravishda oshirib ko'rsatish hamda moliyaviy hujjatlarni manipulyatsiya qilish soliq to'lashdan bo'yin tovlashning keng uchraydigan usullaridan hisoblanadi (Ozili, 2020). Soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasida yo'qotiladigan daromadning miqdori esa har qanday mamlakat uchun sezilarli bo'lishi mumkin [4]. Ko'plab tadqiqotlarda soliq to'lashdan bo'yin tovlash individual xatti-harakatlar bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi (Alm va boshq., 2019). Axloqiy qarashlar, ishonch, munosabat, idrok, niyat, xabardorlik, madaniyat, dindorlik, bilim va ta'lim darajasi kabi omillar soliq to'lash bo'yicha xatti-harakatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy daromad solig'i bo'yicha soliq to'lashdan bo'yin tovlash eng ko'p uchraydigan hodisalardan bo'lib, jismoniy shaxslar daromadni kam hisobot qilish, chegirmalar va imtiyozlarni bo'rttirib ko'rsatish yoki soliq deklaratsiyasini o'z vaqtida topshirmaslik orqali soliqdan qochishi mumkin (Efeeloo va Dik, 2018). Korxonalar ham xuddi shu tarzda yuridik shaxslarning daromad solig'i bo'yicha majburiyatlardan bo'yin tovlashi mumkin [5].

Adabiyotlarda iqtisodiy omillar — soliq stavkasi, moliyaviy cheklovlar, daromad darajasi, soliq yuki, korrupsiya, iqtisodiy tuzilma, audit, jarima va ishsizlik kabi omillar muhim determinatorlar sifatida qayd etiladi. Richardson (2016) iqtisodiy omillarga qaraganda iqtisodiy bo'lmagan omillarning soliq to'lashdan bo'yin tovlashga ko'proq ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Korrupsiya hokimiyat yoki vakolatli shaxsning shaxsiy manfaat yo'lida rasmiy vakolatni suiiste'mol qilishi sifatida izohlanadi (Khlif va Amara, 2019). Ishsizlik esa mehnatga layoqatli, biroq haq to'lanadigan ishga ega bo'lmagan, lekin faol ravishda ish qidirayotgan shaxslar sifatida baholanadi (Tabandeh va Tamadonnejad, 2015) va ko'plab tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyotning muhim manbalaridan biri sifatida qayd etiladi [6]. So'nggi tadqiqotlarda soliq to'lashdan bo'yin tovlashga ta'sir etuvchi omillar qatoriga davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat hamda axborot tarqatish jarayonlarining samaradorligi ham kiritilmoqda. Hukumatlar so'nggi yillarda internet texnologiyalaridan foydalanish orqali davlat xizmatlarini soddalashtirish va ularning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda (Uyar va boshq., 2021; Montenegro, 2021). Hushtakbozlik tizimlari esa xususiy yoki davlat sektorida noqonuniy va axloqsiz faoliyatni aniqlash imkoniyatini oshirib, audit jarayonlarida qo'shimcha nazorat mexanizmi sifatida xizmat qiladi (Masslet va boshq., 2019).



TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirishning turli modellari mavjud bo'lib, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy sharoiti, soliq infratuzilmasi va institutsional rivojlanish darajasiga qarab maxsus yondashuvni qo'llaydi. AQSh tajribasida soliq tizimini raqamlashtirish bir necha bosqichda amalga oshirilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor soliq ma'lumotlarini real vaqt rejimida yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishga qaratilgan. Internal Revenue Service (IRS) tomonidan e-filing, e-audit, onlayn identifikatsiya va risk tahlil platformalari keng joriy etilgan. Metodologik yondashuvning asosiy o'ziga xos jihati — riskga asoslangan audit tizimi bo'lib, unda har bir soliq to'lovchi bo'yicha raqamli ko'rsatkichlar algoritmlar orqali tahlil qilinadi. AQShda kuzatilgan muammolar qatoriga federal va shtat soliq tizimlari integratsiyasidagi uzilishlar, ma'lumotlar hajmining kattaligi tufayli texnik cheklovlar, shuningdek shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash bo'yicha yuridik cheklovlar kiradi.

Yevropa Ittifoqi (YEI) tajribasida soliq raqamlashtirish jarayonlari yagona standartga asoslanadi, bunda elektron hisob-faktura (e-invoice) va raqamli markirovka tizimlari samarali ishlaydi. Polsha, Estoniya, Latviya, Italiya kabi davlatlarda soliq ma'murchiligi to'liq elektron tizimga o'tkazilgan. YEIda qo'llaniladigan "Real Time Reporting" amaliyoti orqali tovar aylanmasi va xususan QQS bo'yicha operatsiyalar soliq organlariga darhol uzatiladi. Biroq turli davlatlar o'rtasida yagona soliq standartlarini joriy etishdagi murakkabliklar, biznes sub'yektlarining texnik infratuzilmasidagi farqlar hamda ma'lumotlar oqimi oshishi bilan bog'liq texnik kechikishlar metodologik muammolar sifatida qayd etiladi.

Janubiy Koreya soliq raqamlashtirish bo'yicha eng ilg'or davlatlardan biri bo'lib, Milliy soliq xizmati (NTS) tomonidan yaratilgan Hometax platformasi orqali ro'yxatdan o'tish, hisobot topshirish, audit jarayonlari, monitoring va to'lovlar to'liq avtomatlashtirilgan. Shuningdek, blokcheyn asosidagi soliq monitoringi, sun'iy intellektga asoslangan audit, tovarlarni raqamli kuzatish mexanizmlari keng joriy etilgan. Metodologik muammolar sifatida yuqori texnologiyalardan foydalanish uchun tadbirkorlar zimmasiga tushadigan dastlabki xarajatlarning ko'pligi, axborot tizimlarining murakkabligi sababli kichik biznesning moslashuvi qiyinligi, katta hajmdagi real vaqt ma'lumotlarini uzluksiz boshqarish zarurati qayd etiladi.

Xitoy tajribasida soliq raqamlashtirish "Golden Tax System" orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizim QQS bo'yicha elektron hisob-fakturalar, tovarlar harakati, bojxona ma'lumotlari va bank tranzaksiyalarini yagona platformada birlashtiradi. Xitoy, shuningdek, raqamli markirovka, QR-kod identifikatsiyasi va sun'iy intellekt orqali kontrafakt mahsulotlarni aniqlash bo'yicha ilg'or mexanizmlarga ega. Biroq mamlakatning hududlari o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajalarining farqliligi sababli infratuzilmaning notekisligi, IT-tizimlarning haddan tashqari markazlashuvi natijasida yuzaga keladigan yuklama va ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha yuqori talablar mavjud.

Rossiya tajribasida "Chestniy ZNAK" raqamli markirovka tizimi joriy etilgan bo'lib, farmatsevtika, tamaki, sut mahsulotlari, poyabzal va boshqa ko'plab mahsulotlar raqamlashtirilgan. Soliq organlari "Nalog-3" platformasi orqali barcha ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlaydi va monitoringni amalga oshiradi. Metodologik muammolar sifatida markirovka tizimiga o'tish xarajatlarning yuqoriligi, kichik biznes uchun texnik moslashuv jarayonining murakkabligi va ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli emasligi qayd etiladi.

Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" loyihasi doirasida Soliq qo'mitasining Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi zamonaviy server va telekommunikatsiya uskunalari bilan jihozlandi. Natijada markazning umumiy hisoblash quvvati 20 barobarga oshirildi, tizimlarning barqaror hamda uzluksiz ishlash ko'rsatkichi 99 foizga yetkazildi. Soniyada o'rtacha 3,5 mingdan ortiq so'rov qayta ishlanib, tegishli tizimlarga avtomatik yo'naltirilmoqda. Har kuni nazorat-kassa mashinalari orqali 8 milliondan ortiq elektron cheklar, shuningdek 130 mingdan ortiq elektron hisob-fakturalar real vaqt rejimida qabul qilinib, qayta ishlanmoqda. Yaratilgan zamonaviy infratuzilma soliq ma'muriyatchiligini samarali ta'minlash va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan 75 ta axborot tizimi hamda 60 dan ortiq interaktiv xizmatlarni joriy etish imkonini berdi. Bundan tashqari, 71 ta vazirlik va idora bilan 392 ta yo'nalishda tezkor axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi va bu soliq hisobotlarini 93 foizgacha avtomatlashtirish imkoniyatini yaratdi. 2025-yilning o'tgan davri mobaynida 3 ta yangi axborot tizimi va 6 ta alohida quyi tizim ishlab chiqilib, joriy etildi, 8 ta vazirlik va tashkilotlar bilan axborot almashish bo'yicha 41 ta yangi yo'nalishda integratsiya amalga oshirildi. Bugungi kunda "Soliq" mobil ilovasi foydalanuvchilar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41 foizga o'sib, 12,7 million nafarga yetdi. Ilovada foydalanuvchilarni masofadan turib identifikatsiya qilishga mo'ljallangan Face ID xizmati joriy etildi. 2025-yilda mobil ilovada 8 ta yangi xizmat ishga tushirilib, mavjud xizmatlar soni 38 taga yetkazildi.

Soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida yangilangan my3.soliq.uz portali faoliyati yo'lga qo'yildi. Portalda soliq to'lovchilar uchun 2025-yilda 6 ta yangi interaktiv xizmat joriy etilib, ularning umumiy soni 88 taga yetkazildi. Soliq qonunchiligiga oid masalalar bo'yicha tezkor tushuntirishlar beruvchi hamda sun'iy intellekt asosida 24/7 rejimida uzluksiz faoliyat yurituvchi "Davron" virtual yordamchisi

amaliyotga joriy etildi. 2026-yildagi asosiy rejalar quyidagilardan iborat: soliq organlarida 7 ta vazirlik va idoralar bilan 19 ta yo'nalishda ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yiladi, soliq xavflarini tahlil qilish va baholash, Soliq qo'mitasining idoralararo hujjat aylanish tizimi hamda "Call-center" faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga kirishiladi va ularning loyiha-texnik hujjatlari ishlab chiqiladi; sun'iy intellekt foydalangan holda soliq to'lovchilarga ko'maklashuvchi "Davron" virtual maslahatchisi takomillashtiriladi, sun'iy intellekt yo'nalishida soliq organlari xodimlarining malakasi oshiriladi hamda shu sohada ilg'or tajribaga ega mamlakatlar amaliyoti o'rganiladi; "Resurs soliqlari ma'muriyatchiligi" axborot tizimi ishlab chiqilib, sinov tariqasida joriy etiladi va 2027-yildan to'liq amaliyotga joriy etiladi. Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farqini qoplashda inson omilini kamaytirish orqali korrupsion sxemalarga barham berish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, keyingi yillarda soliq organlarida raqamlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, mazkur yo'nalishda soliq to'lovchini hisobga olishdan tortib majburiyatini bajarishgacha bo'lgan sikl avtomatlashtirildi va 60 dan ortiq interaktiv xizmat joriy etildi. Jumladan, "Soliq" mobil ilovasida 2024-yilda 8 ta yangi xizmat ("Soliq biznes", "Tovar-transport yuk xati", "Xabar yuborish", "Fiskal modulga to'lov", "Komissioner shakllantirish", "Barqarorlik reytingi", "Mening uyim") ishga tushirilib, mobil ilova orqali ko'rsatiladigan xizmatlar soni 33 taga yetkazildi. Xususan, mazkur interaktiv xizmatlar orasida yangi yo'lga qo'yilgan barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga 1 kun muddatda avtomat tarzda inson omilisiz QQS salbiy farq summasini qaytarilishini ta'minlovchi dasturiy mahsulot muqaddam ushbu yo'nalishlarda kuzatilgan korrupsion holatlarga barham berdi yoki ularni minimallashtirdi. Bu borada QQS salbiy farq summasini qoplashda korrupsion holatlarning oldini olish hamda tadbirkorlar sarsongarchiligiga barham berish maqsadida 2024-yilning dastlabki oylarida qabul qilingan normativ hujjatlarga ko'ra, barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga QQS salbiy farq summasini inson omilisiz avtomat tarzda 1 kun muddatda qoplab berish mexanizmi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son¹ qaroriga muvofiq, reyting doirasida tadbirkorlik subyektlari quyidagi toifalarga ajratildi: "AAA", "AA" va "A" toifalar — yuqori barqarorlik reytingi; "VVV", "VV" va "V" toifalar — o'rta barqarorlik reytingi; "SSS", "SS" va "S" toifalar — qoniqarli barqarorlik reytingi; "D" toifa — quyi barqarorlik reytingi. Qarorning 4-bandida yuqori barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi rag'batlantirish choralari joriy etildi: a) "AAA" toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmasligi (jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga QQS summasi o'rnini qoplash (qaytarish) 1 kun muddatda tekshiruvlarsiz avtomat tarzda amalga oshirilishi belgilandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 1-maydagi PQ-71-son² farmonining 12-bandiga muvofiq, 2024-yil 1-maydan 2026-yil 1-maygacha "A" va undan yuqori toifadagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj yo'nalishidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmasligi (jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga QQS summasi o'rnini qoplash (qaytarish) 1 kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshirilishi belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-son qarori qabul qilindi va unga ko'ra tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi shkalasi tasdiqlandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-son³ Farmoni bilan dasturga kiritilgan tadbirkorlik subyektlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-sonli qarori bilan barqarorlik reytingi "BBB" va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish imkoniyatini beruvchi tartib tatbiq etildi. Ya'ni, tadbirkorlik subyektlari tomonidan import qilingan tovarlar uchun bojxonaga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar ilgari soliq organlaridan mavjud QQS salbiy farq summasini qaytarib olish uchun murojaat qilib, qoplangan summadan to'lab kelingan bo'lsa, mazkur tatbiq etilgan o'zgarishlar natijasida soliq organlarida qo'shilgan qiymat solig'idan mavjud ortiqcha to'lovlar hisobidan bojxona to'lovlarini avtomat tarzda (o'zaro hisobga olish mexanizmi orqali) to'lash tizimi joriy qilindi. Joriy yilda yashirin ish o'rinlarini legallashtirish bo'yicha belgilangan 500 ming yillik rejaning ijrosi bugungi kunda 191,3 ming (38,3 %) nafarga yoki 100,6 foizga bajarilib, reja ijrosi barcha hududlarda ta'minlandi. Tadbirkorlik subyektlari aylanma mablag'larini shakllantirish maqsadida 2025-yilning yanvar-iyul oylari davomida 3 609 ta

1 <https://lex.uz/uz/docs/-6773342>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-6908347>

3 <https://lex.uz/docs/-6493069?ONDATE=14.06.2023>



korxonaga jami 10624,9 mlrd. so'm (iyul oyida 794 ta korxonaga 1 829,1 mlrd. so'm) QQSning manfiy farq summasi qoplab berilgan bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son⁴ qaroriga asosan barqarorlik reytingi darajasi "AAA" bo'lgan 1 036 ta korxonaga 1 522,4 mlrd. so'm (iyul oyida 257 ta korxonaga 197,0 mlrd. so'm) QQS salbiy farq summalari tekshiruvlarsiz avtomatik tarzda 1 kun muddatda qoplab berildi. 2024-yilda xarid qilinayotgan va realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga mos kelmagan operatsiyalarni amalga oshirgan 177 ta soliq to'lovchilarning QQS maxsus guvohnomalari vaqtinchalik to'xtatildi. Joriy yilning yanvar-iyul oylarida soliq xizmati organlari jami 18 060 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o'tkazdi. Shundan 2 519 tasida soliqlarni to'lamaslik xavfi yuqori bo'lganligi, 2 270 tasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha hamda 13 271 tasida soliq to'lovchi tugatilishi munosabati bilan soliq auditlari o'tkazildi. O'tkazilgan tekshirishlar natijasida budjetga jami 17712,6 mlrd. so'm qo'shimcha (shundan 10 480,5 mlrd. so'm qo'shimcha soliq va 7 232,2 mlrd. so'm moliyaviy jarima) mablag'lar hisoblandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hisobot davrida xufiyona aylanmalarga chek qo'yish hamda qo'shimcha manbalarni jalb qilish orqali budjetga tushumlarni ta'minlash doirasida 35 565 ta kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib, 1 333,6 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olindi. Shu bilan birgalikda, soliq organlari tomonidan o'tkazilgan 28 607 ta sayyor soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan 94,9 mlrd.so'm moliyaviy jarimalar qo'llanildi. Aholiga yo'nalishtirish taksi xizmatini ko'rsatayotgan subyektlar faoliyatini legallashtirish bo'yicha tizimli ishlar davom ettirilib, agregatorlik xizmatini ko'rsatayotgan subyektlarning axborot tizimlari soliq organlarining ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilinmoqda (ularning soni 215 taga, shundan chek yuborganlar soni 188 taga yetdi). Xususan, "YandexGo", "Uklon", "My taxi", "Biznes taxi", "GeoGo", "Taxi OK" va boshqa agregatorlar xizmatidan 2025-yilning 7 oyida 457,3 mingdan ortiq o'zini o'zi band qilgan shaxslar foydalangan bo'lib, ushbu davrda 5 000,8 mlrd.so'mlik 262,2 mln.ta tashuvlar bo'yicha chek rasmiylashtirilgan. Shundan, "Yandex Go UB" MCHJ xizmatidan joriy yilning o'tgan davrida 362,5 mingdan ortiq o'zini o'zi band qilgan shaxslar foydalangan bo'lib, 4 265,7 mlrd.so'mlik 215,2 mln.ta chek rasmiylashtirilgan. Agregatorlar tomonidan 2025-yilning 7 oyida jami 98,8 mlrd.so'm, shundan QQS 55,4 mlrd.so'm soliqlar to'landi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida joriy yilning yanvar-iyul oylari uchun budjetga 117,0 trln.so'm belgilangan prognoz ko'rsatkichlari haqiqatda 122,2 trln.so'mga (104,4%) bajarilib, budjetga 5,1 trln.so'm qo'shimcha tushumlar ta'minlandi. Tushumlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga (102,8 trln.so'm) nisbatan 118,8 foizni tashkil etib, 19,4 trln.so'mga o'sdi.

Takliflar: axborot tizimlarini yagona standart asosida integratsiyalash. Soliq, bojxona, bank, markirovka, elektron hisob-faktura (EHF) va monitoring platformalarini yagona raqamli ekotizimga birlashtirish, har bir davlat organi uchun yagona API va ma'lumotlar almashinuvi protokollarini ishlab chiqish, real vaqt rejimida ma'lumot uzatish bo'yicha xalqaro tajribaga mos milliy standart yaratish. Zamonaviy analitika va sun'iy intellektdan keng foydalanish. Soliq xavf-xatarlarini aniqlashda AI algoritmlarini joriy etish (kontrafakt, yashirin aylanma, noto'g'ri deklaratsiya), soliq ma'lumotlarini tahlil qiluvchi big data markazlarini tashkil etish, raqamli markirovka ma'lumotlaridan foydalanib ta'minot zanjiri bo'yicha avtomatik monitoring tizimini yaratish.

Raqamlashtirish xarajatlarini kamaytirish. Kichik biznes uchun markirovka uskunalari, skanerlar va dasturiy ta'minotni subsidiyalash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni jalb qilgan holda arzon texnik yechimlar yaratish, raqamli xizmatlar uchun litsenziya va texnik xizmat xarajatlarini kamaytirish.

Soliq jarayonlarini soddalashtiruvchi platformalarni rivojlantirish. Soliq hisobotlari, markirovka, EHF va ro'yxatdan o'tish jarayonlarini "bir darcha – bir ilova" tamoyili asosida birlashtirish, mobil ilovalar orqali soliq to'lovchi uchun qulay interfeyslar yaratish, qiyin jarayonlarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish va foydalanuvchi xatolarini minimallashtirish.

Kiberxavfsizlikni kuchaytirish. Raqamli soliq tizimlarida ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha ko'p bosqichli xavfsizlik tizimini joriy etish (multi-layer security), soliq ma'lumotlari bilan ishlovchi tashkilotlar uchun majburiy xavfsizlik auditini yo'lga qo'yish, xakerlik hujumlarining oldini olish uchun "Security Operation Center (SOC)" tashkil qilish.

Monitoring va nazoratning yangi mexanizmlarini joriy etish. Soliq organlari uchun real vaqt monitoring panelini (dashboard) yaratish, qonunbuzarliklarni aniqlovchi avtomatik signalizatsiya (alert) tizimini takomillashtirish, raqamli auditni bosqichma-bosqich kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/-4674902>
2. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

4 <https://lex.uz/docs/-6773342>



3. Efeeloo N. & Disk N. (2018). An Empirical Review of the Determinants of Tax Evasion in Nigeria: Emphasis on the Informal Sector Operators in Port Harcourt Metropolis. *Journal of Accounting and Financial Management*, 4(3), 1–10. <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/63209917>
4. Johnson Janet Berry (2022). Tax Liability: Definition, Calculation, and Example. The Investopedia Team, October 26. <https://www.investopedia.com/terms/t/taxliability.asp>
5. Josephson Amelia (2022). The Ultimate Guide to Tax Liability. November 16. <https://smartasset.com/taxes/tax-liability>
6. Masset D., Montmarquette S. & Viennot-Briot N. (2019). Can whistleblower programs reduce tax evasion? Experimental evidence. *Journal of Behavioral and Experimental Economics*, 83, 101459. <https://doi.org/10.1016/j.socec.2019.101459>
7. Owusu G.M.Y., Bekoe R.A., Anokye F.K. & Anyetei L. (2019). What Factors Influence the Intentions of Individuals to Engage in Tax Evasion? Evidence from Ghana. *International Journal of Public Administration*, 43(13), 1143–1155. <https://doi.org/10.1080/01900692.2019.1665686>
8. Ozili P.K. (2020). Tax evasion and financial instability. *Journal of Financial Crime*, 27(2), 531–539. <https://doi.org/10.1108/JFC-04-2019-0051>
9. Richardson G. (2016). The Determinants of Tax Evasion: A Cross-Country Study. *Financial Crimes: Psychological, Technological, and Ethical Issues*, 33–57. https://doi.org/10.1007/978-3-319-32419-7_2
10. N.K. Muxammadov. “Ma'lumotlarni elektron hujjat aylanish tizimida shakllantirish orqali soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. Toshkent, 2024-yil, 156 bet.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100